

KUCHLI FUQAROLIK JAMIYATINI ERKINLIK VA MA'SULIYAT BILAN BOG'LIQLIGI.

Mixliyeva Gulshoda Zarip qizi

TATU Qarshi filiali o'qituvchisi Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Qarshi filiali "Axborot ta'lif va texnologiyalar va gumanitar fanlar" kafedrasi erkin tadqiqotchisi
gulshodamixliyeva94@gmail.com.

Annotatsiya: Ushbu maqolada demokratiya va kuchli fuqarolik jamiyatida erkinlik va mas'uliyat tushinchalari bilan bog'liqligi va erkinlik va mas'uliyatni ortishi o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Fuqarolik jamiyati, milliy tiklanish, erkinlik, mas'uliyat, demokratiya.

Inson jamiyatdan ayri holda yashay olmaydi. Yashagan taqdirda ham uning ma'nnaviyati, ongi va tafakkuri shakllanmaydi. Inson jamiyatda yashar ekan o'zining manfaatlarini yuqori darajaga qo'yib uni yuzaga chiqarishga harakat qiladi. Bu manfaatlarni qaydarajada yuzaga chiqishi uning irodasiga bog'liq. Irodasi zaif inson har qanday vaziyatda ham o'z manfaatini o'ylab harakat qiladi. Jamiyat manfaatini inobatga olmaydi. O'zining manfaatini jamiyat manfaatidan ustun qo'yadi.

Inson va jamiyat manfaatlarini bir biridan ustun qo'yib bo'lmaydi, aks holda o'rtadagi muvozanat buziladi. Jamiyat inson manfaatlarini inkor qilib, ko'pchilikni manfaatini ustun qo'ysa, shaxsiy manfaatlarni hisobga olmasa sotsializm davridagidek bo'ladi. Agar inson manfaatlari jamiyat manfaatlaridan ustun qo'yilsa inson faqat o'zini o'ylaydigan, o'zi uchun harakat qiladigan xudbin shaxsga aylanib qoladi. Shuning uchun ham inson va jamiyat manfaatlarini uyg'un holda olib borish zarur.

Inson shunday faoliyat bilan shug'llanishi kerakki, bu faoliyatdan uning o'zi ham, jamiyat ham manfaatdor bo'lishi lozim. Masalan, insonning bilim olib, ma'lum bir kasbni egallash uchun o'qib o'rganishidan, bir tomondan, bilimi oshganidan o'zi ham manfaatdor, ikkinchi tomondan, yuksak bilimli, o'z kasbini yaxshi biladigan kadr yetishib chiqayotganidan jamiyat ham manfaatdor. Chunki jamiyatga aynan mana shunday bilimli insonlar kerak. Bunday vaziyatda inson va jamiyat manfaatlari bir biriga mos keladi. Jamiyat insonlarning manfaatidan kelib chiqqan holda rivojlanishi kerak. Jamiyat insonlarning mustaqil yashashiga,adolatli mehnat sharoitida ishlashiga, o'zi qiziqqan kasb bilan shug'llanishiga sharoit yaratib berishi lozim. To'g'ri, jamiyat barcha insonlarga o'zi xohlagandek hayotni taqdim etolmasligi mumkin. Chunki inson

VOLUME-2, ISSUE-10

hayotining qanday kechishi uning o‘z xatti-harakatiga, mehnatsevarligiga bog‘liq. Jamiyat faqat bunday insonlarning xatti-harakatini ijobiy yoki salbiy baholash orqali ularni qo‘llab-quvvatlashi yoki e`tiroz bildirishi mumkin.

Fuqarolik jamiyatni- insoniyat svilizatsiyasining nodir kashfiyoti. U yuksak madaniyatga asoslangan demokratik taraqqiyotning oliy shakli bo‘lib, o‘ziga xos ijtimoiy erkin makondir. Bu makonda odamlar bir-biridan va davlatdan mustaqil holda o‘zaro hamkorlikda aloqada bo‘lishadi.

Fuqarolik jamiyatining asosi bu-tamaddudlashgan, faoliyatda ongli va erkin, to’laqonli huquqqa ega individdir. Demak, jamiyat mohiyati va sifati, eng avvalo, unda yashovchi shaxslarning teran insoniy fazilatlariga – komil madaniyatiga bog‘liq. Ana shu tariqa fuqarolik jamiyatining shakllanishi bevosita shaxsning individual ozodligi va erkinligiga bog‘liq[1].

Mavjud ilmiy adabiyotlarning aksariyati demokratik, fuqarolik jamiyatni uning muhim sharti bo‘lgan huquqiy davlat, keng ma’noda tinchlik va erkinlikka asoslangan xalq hokimiyatini yagona manba deb tan oluvchi davlat va jamiyatning siyosiy tuzilishi, shakli sifatida talqin qiladi. Biz demokratik jamiyatga nisbatan ushbu ilmiy yondashuvdan kelib chiqqan holda unda erkinlik masalasini va ana shu erkinlikning ta’minlanishida davlatning tutgan o’rni va ahamiyati haqida to’xtaladigan bo’lsak, bundan asosiy maqsad demokratik erkin jamiyatni erkin fuqaro barpo qila olishini alohida ta’kidlashdir.

O’zbekistonda istiqlolning dastlabki yillardanoq huquqiy demokratik davlat hamda kuchli fuqrolik jamiyatni barpo etish bosh maqsad qilib qo’yildi. Murakkablashib borayotgan ko’p qutbli dunyoda Jahon xaritasidan joy olgan O’zbekiston Respublikasining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayoti katta o’zgarishlar vujudga kela boshladи. Demokratlashtirish va kuchli fuqarolik jamiyatni barpo etish uchun shart-sharoitlar yaratildi. Demokratiya haqida fikr yuritadigan bo’lsak, demokratiya bu xalq hokimiyati bo‘lib, uning ilk ko’rinishlari svilizatsiya tongidayoq qaror topgan va u insoniyatning buyuk qadriyatidir. Insoniyat tarixida demokratiya yo sahnadan ancha vaqt tushib, yo qisqa vaqt tiklanib turgan.

“Demokratiyanı inson va jamiyat mushtarakligi orqali tahlil qiladigan bo’lsak-“demokratiya –bu inson qadr-qimmatini, aql zakovatini, jamiyatni boshqarish (boshqaruvda ishtiroy etish) iqtidori va huquqini tan olishdir, shaxs va jamiyatning yuksak siyosiy madaniyati va o‘zaro mas’ulligidir. Demokratiya bu –tolerantlik, jamiyat hayotining u yoki bu masalalariga oid fuqaro fikrini eshitishdir. Shunday qilib, demokratiya erkin inson, haqiqiy fuqaro, haqiqiy fuqarolik jamiyatni shakillanishiga xizmat qiladi”[2].

Adolat asosida qurilgan huquqiy jamiyatda erkin yashovchi, erkin fikrlab o'z ma'suliyatini his qilgan asl fuqarolar va kuchli fuqarolik jamiyati taraqqiy topadi. Zero, birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov shunday degan edilar -“ Biz uchun fuqarolik jamiyati-ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustuvor bo'lib, u insonning o'z-o'zini kamol toptirishga monelik qilmaydi, aksincha yordam beradi. Shaxs manfaatlari, uning huquq va erkinliklari to'la darajada ro'yobga chiqishga ko'maklashadi”[3]. Fuqarolik jamiyatida yashovchi har bir fuqaroning huquq va erkinliklari qonun bilan himoyalanadi va hech bir insonning erkinliklarini kansitilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.A.Karimov “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi”. T:2010. 100-bet
2. I.A.Karimov.O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.- T: O'zbekiston 1997 173-b
3. Abdurahim Erkayev. Ma'naviyat va taraqqiyot.T.” Ma'naviyat” 2009 345-346-b
4. Abdurahim Erkayev. ”Milliy jipslik omillari” Tafakkur jurnali, 2010-yil 1/62.